

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference

On Legal Science

No.1 (2)

2024

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATDA SOTUVCHI MANFAATLARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH	4-10
<i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARI FOND BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTOR SIFATIDA	11-15
<i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> ISLOM MOLIYASIDA MUSHOKARA SHERIKCHILIK BITIMINING TUTGAN O'RNI	16-22
<i>Xudayqulova Nodira Qo'ldoshjonovna</i> HISSADORLIKKA ASOSLANGAN KRAUDFANDING FAOLIYATIDA INVESTOR HUQUQLARI HIMOYASI VA QIMMATLI QOG'OZLAR AYLANISHIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR	23-28
<i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT: SOHAGA OID MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR	29-34
<i>Odilov Nozimjon Jumanazar o'g'li</i> UCHINCHI TOMON PROVAYDERLARINING MIJOZ MOLIYAVIY MA'LUMOTLARIGA KIRISHINING HUQUQIY ASOSLARI	35-39
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDARABAH INTEGRATSIYASI: O'ZBEKISTONNING UMUMIY SHERIKLIK KELISHUVI DOIRASIDA ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI	40-46
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR TOMONIDAN SOLIQ MILLIY BAZASI YEMIRLISHINING OLDINI OLIH USULLARI	47-50
<i>Shaimardanova Dilafruz</i> ETHICAL ASPECTS OF DIGITAL ESTATE MANAGEMENT: CONFIDENTIALITY, RESPECT FOR WILL, AND NORMS OF INHERITANCE LAW	51-58
<i>Xonzodabegim Raxmatova Utkir qizi</i> KIBER HUQUQ UCHUN YURISDIKSIYANI VA XALQARO HAMKORLIKNI TARTIBGA SOLINISHI	59-73
<i>Sabohat Abdullayeva</i> BLOKCHEYN ASOSIDAGI RAQAMLI SUD EKSPERTIZASI VOSITALARI	74-84

Asal Juraeva

CHOICE OF SUBSTANTIVE AND PROCEDURAL LAW IN INTERNATIONAL
COMMERCIAL ARBITRATION85-91

Xudoyberdiyev Nuriddin Olloberdi o'g'li

KIBERHUQUQDA YURIDIKSIYA MASALALARI – ONLAYN MUHITDA QAYSI
DAVLAT QONUNCHILIGI QO'LLANILADI? 92-103

Rabbimov Shohruh

RAQAMLI ASRDA FUQAROLIK ERKINLIKLARI VA ULARNI
MUVOZANATLASH 104-112

Abbosjon Olimov

KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISH BILAN BOG'LIQ XALQARO ISO
STANDARTLAR VA ULARNI OZBEKISTON QONUNCHILIGIGA
INTEGRATSIYALASH 112-125

Mirzakarimova Dilafruz

KIBERXAVFSIZLIK VA YURISDIKSIYA CHEGARALARINI BELGILASH
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 126-134

Normurodova Behro'za Xolmo'minovna

RAQAMLI OCHIQ MANBALAR ORQALI DALILLAR TO'PLASH VA TERGOV
QILISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH..... 135-143

Gulomov Shokhrukh Islomjon ugli

REGULATORY FRAMEWORKS FOR METAVERSE PLATFORMS: CHALLENGES
AND OPPORTUNITIES..... 144-151

O'razbayev Laziz Shuhrat o'g'li

MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI INFRATUZILMALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN
OLIB BORILAYOTGAN CHORA-TADBIRLARNING AHAMIYATI 152-158

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi

MOLIYAVIY VOSITACHILAR ORASIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING
TUTGAN O'RNI 159-162

SUG'URTA KOMPANIYALARI FOND BOZORIDA INSTITUTIONAL INVESTOR SIFATIDA

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

olimjonovahulkar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatidagi roli ochib berilgan. Sug'urta kompaniyalari institutsional investor sifatida moliya bozorining, ayniqsa kapital bozorining muhim ishtirokchisi hisoblanadi. Ular moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish, bozordagi integratsiyalashuvga ta'sir ko'rsatish, tartibga solishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: sug'urta kompaniyalari, institutsional investor, investitsiya faoliyati, moliya bozori, iqtisodiyot, kapital bozori.

INSURANCE COMPANIES AS INSTITUTIONAL INVESTORS IN THE STOCK MARKET

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. The role of insurance companies in investment activity is revealed in the article. Insurance companies as institutional investors are an important participant of the financial market, especially the capital market. They play an important role in strengthening competition in the financial market, stimulating financial innovation, strengthening corporate governance, influencing market integration, and supporting regulation.

Key words: insurance companies, institutional investor, investment activity, financial market, economy, capital market.

So'nggi yillarda butun dunyoda axborot kommunikatsiya, texnologiya rivojlanayotgani iqtisodiyotni ham shunga hamohang tarzda rivojlantirib borishga undamoqda. Bilamizki, iqtisodiyotni, moliya hamda kapital bozorlarini rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri bu ko'proq investitsiya jalb qilishdir. Birgina kapital bozorida amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati davlat iqtisodiyotiga sezilarli foyda keltiradi. Serbiyalik olim Mladenka Balaban o'zining shu sohada olib borgan tadqiqot ishlarida moliyaviy savdolarning asosiy ishtirokchilari moliyaviy vositachilar deb, ularni 3 turga bo'lgan:

1. An'anaviy muassasalar (banklar, jamg'arma kassalari va boshqalar.)
2. Institutsional investorlar (sug'urta kompaniyalari, pensiya jamg'armalari, moliya kompaniyalari va boshqalar)
3. Kollektiv investorlar (investitsiya kompaniyalari, pay fondlari, broker-diler institutlari va birja brokerlari).[1]

Bizda fond bozorida investitsiya ishtirokchilari mayda (oddiy, kichik) va institutsional (yirik) investorlarga bo'linadi. Boshqa yevropa mamlakatlaridagi singari bizdagi fond bozorida ham yirik, ya'ni institutsional investorlardan biri bu sug'urta kompaniyalaridir. Sug'urta kompaniyalari o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari fond bozorida institutsional investor sifatida ham faoliyatni amalga oshiradi va ushbu faoliyat bilan shug'ullanishi sug'urta faoliyatining o'ziga xosligini anglatadi. Sug'urta kompaniyalarining fond bozorida investitsiya faoliyatini amalga oshirishi nafaqat davlatning iqtisodiyotiga, balki sug'urta kompaniyalari uchun ham ushbu faoliyat katta daromad manbai hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyatidan ishlab topgan va o'zi to'plagan vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatiga yo'naltiradi. Moliyaviy bozorlarda faol ishtirok etish va investitsiya qilingan mablag'lar hajmi sug'urta kompaniyalarini eng muhim institutsional investorlar sifatida aniqlash imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyalarida o'z mablag'laridan tashqari, investitsiyalarning asosiy manbai sug'urta faoliyatini amalga oshirishda sug'urta kompaniyalari tomonidan shakllantiriladigan sug'urta zaxiralari bo'lib, ularni yaratish zarurati sug'urta hodisalarining ehtimoliy xususiyati va sodir bo'lish hajmi va

momentining noaniqligi, yo'qotishlar bilan belgilanadi. Sug'urta zaxiralari investitsiyalarning asosiy manbai bo'lib, hayotni sug'urtalash ularning uzoq muddatli istiqbollari ta'minlaydi. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati davlat tomonidan ham vaqtincha bo'sh mablag'lardan, ham sug'urta zaxiralaridan foydalanish asosida tartibga solinadi va o'z mablag'larini joylashtirish, sug'urta zaxiralari va moliyalashtirish hamda profilaktika choralari uchun zaxiralar bo'yicha normativ talablar orqali amalga oshiriladi. Sug'urta zaxiralarini joylashtirish deganda ularning xavfsizligini qoplash uchun qabul qilingan aktivlar tushuniladi. Barcha tartibga soluvchi cheklovlar sug'urta kompaniyalarining xavfsizligi va moliyaviy barqarorligining zarur darajasini ta'minlaydi. Sug'urta zaxiralarini qoplash uchun qabul qilingan aktivlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: diversifikatsiya, to'lov, rentabellik, likvidlik va ishonchlilik.[2]

Hozirgi O'zbekiston fond bozori investitsiya faoliyatida sug'urta kompaniyalarining ishtiroki deyarli juda kam. Yevropa davlatlari moliya bozorida bo'lsa sug'urta kompaniyasi 8,5 trn. bilan eng yirik institutsional investor hisoblanadi. Shu tufayli sug'urta kompaniyalarini kapital bozoriga ko'proq jal qilish lozim, negaki, sug'urta orqali jalb qilingan mablag'lar butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Buning uchun yurtimizda shu sohani rag'batlantiruvchi qonunchilikni ko'paytirish, soha rivojidagi ichki va tashqi muammolarni aniqlash, chet el tajribasidan foydalangan holda yangidan yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, sug'urta kompaniyalari sonini ko'paytirish, ularning faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi mavjud cheklovlarni olib tashlash hamda sug'urta kompaniyalari faoliyatini amalga oshirish uchun qo'yilgan talablarni yengillashtirish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash uchun, avvalo, shu sohani tartibga soluvchi yangi, to'ldiruvchi hamda rag'batlantiruvchi qonunchilik normalarini ishlab chiqish orqali, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda yengillik va imtiyozlar berish orqali biz ham yevropa davlatlari singari kapital bozorida sug'urta kompaniyalarining faol ishtirokini ta'minlashimiz mumkin.

REFERENCES:

1. Mladenka Balaban. Role of insurance company as institutional investors <https://core.ac.uk/download/pdf/33812139.pdf>
2. М.А. Щербаков. Страховые организации как важнейший институциональный инвестор. Economics & Law 2015. № 2(48) ISSN 2221-7347.
3. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 7-noyabrdagi 306-V-sonli [qarori](#) bilan tasdiqlangan "Qimmatli qog'ozlar bozoridagi institutsional investorlar faoliyatining professional standartlari to'g'risida"gi **nizomi**.
4. Мелкумова Р.Г. Научный руководитель: Биндасова Н.А. Деятельность страховых компаний на рынке ценных бумаг. Таврический научный обозреватель www.tavr.science № 1 (январь), 2016.
5. The importance of insurance companies for financial stability https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/fsr/art/ecb.fsrart200912en_05.pdf
6. Topildiev, B., & Khursanov, R. (2021). Legal fact based on occurrence civil rights and obligations. *Ilkogretim Online*, 20(3).
7. Topildiev, B., Khursanov, R., & Usmonova, M. (2020). Trust management agreement Property and prospects for its development in the Republic of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3199-3205.
8. Топилдиев, Б. Р. (2017). Основные условия договора доверительного управления имуществом. *Юрист*, (9), 15-19.
9. Топилдиев, Б. Р. (2019). ОСОБЕННОСТИ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПЕРЕДАЧИ ПРЕДПРИЯТИЯ В ДОВЕРИТЕЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ. ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ, 29-33.
10. Topildiyev, B. R. (2022). MOL-MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.
11. Топилдиев, Б. Р. (2017). Основные условия договора доверительного управления имуществом. *Юрист*, (9), 15-19.
12. Topildiev, B. (2021). Issues Of Protection And Enforcement Of The Rights And Interests Of The Beneficiary. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(06), 13-19.

13. Topildiev, B., & Nechaeva, E. V. (2022). APPLICATION OF SECURITIES AS AN OBJECT OF A TRUST MANAGEMENT AGREEMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1197-1208.
14. Топилдиев, Б. (2011). Мол-мулкни ишончли бошқариш шартларини бузганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари. *Обзор законодательства Узбекистана*, (4), 4-7.
15. Топилдиев, Б. Р. (2021). ДОГОВОР ДОВЕРИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ИМУЩЕСТВОМ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. In *Синтез науки и образования в решении глобальных проблем современности: Сборник статей по итогам Международной научно-практической конференции (Саратов, 24 августа 2021 г.)*.- Стерлитамак: АМИ, 2021.-178 с. (р. 148).
16. Топилдиев, Б. (2020). ДОГОВОР ДОВЕРИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ НЕДВИЖИМОСТЬЮ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ. *Review of law sciences*, 5(Спецвыпуск), 55-61.
17. Топилдиев, Б., & Рахимжонов, А. (2019). Совершенствование правового регулирования доверительного управления объектами наследия. *Обзор законодательства Узбекистана*, (2), 18-21.